

## O'ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA OTLARNING YASALISHIGA KO'RA TURLARI

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: B.Ergashova

sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada agglutinativ va flektiv tillarning o'ziga xos farqlari yoritilib, o'zbek va italyan tillarida otlarning yasalishi, bu jarayondagi asosiy morfologik xususiyatlar va yasalish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada har ikkala tilning so'z yasalishidagi usullar, xususan affiksatsiya va kompozitsiya usullarining qo'llanishi, o'xshashlik va farqlar tahlil qilinib, misollar orqali tushuntiriladi. Ushbu tadqiqot ikki xil til tizimidagi ot yasalish mexanizmlarini solishtirish orqali morfologiya va til o'r ganish sohasida chuqurroq tushuncha berishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ot yasalishi, agglutinativ tillar, flektiv tillar, affiksatsiya, kompozitsiya, prefiks, suffiks.*

### شرح

تتناول هذه المقالة السمات المميزة للغات التراثية والتصريفية، بالإضافة إلى ميزات تكوين الكلمات في اللغتين الأوزبكية والإيطالية. يتم إيلاء اهتمام خاص للخصائص المورفولوجية وطرق تكوين الأسماء. بالإضافة إلى ذلك، يتم استكشاف طرق تكوين الكلمات في كلاً اللغتين، ولا سيما استخدام بالإضافة والطريقة المركبة وأوجه التشابه والاختلاف بينهما، والتي يتم شرحها بمساعدة الأمثلة. تهدف هذه الدراسة إلى تعزيز فهم الصرف وتعلم اللغة من خلال مقارنة آليات تكوين الأسماء في نظامين لغوين مختلفين.

**الكلمات المفتاحية:** تكوين كلمات الأسماء، اللغات التراثية، اللغات التصريفية، الإلحاد، الطريقة المركبة، البايدية، اللاحقة

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются отличительные черты агглютинативных и флексивных языков, а также особенности словообразования в узбекском и итальянском языках. Особое внимание уделено морфологическим характеристикам и способам образования существительных. Кроме того, исследуются методы словообразования в обоих языках, в частности использование аффиксации и композитного метода, их сходства и различия, которые объясняются с помощью примеров. Это исследование направлено на углубление понимания морфологии и процесса изучения языка через сопоставление механизмов формирования существительных в двух различных языковых системах.

**Ключевые слова:** словообразование существительных, агглютинативные языки, флексивные языки, аффиксация, композитный метод, префикс, суффикс

**Annotation:** This article explores the distinctive features of agglutinative and inflectional languages, focusing on noun formation in Uzbek and Italian. It examines the main morphological characteristics and methods of noun formation, with particular attention to affixation and composition. Additionally, the study investigates

*the word-formation methods in both languages, analyzing similarities and differences through examples. This research aims to provide deeper insights into morphology and language learning by comparing noun formation mechanisms in two distinct linguistic systems.*

**Key words:** noun formation, agglutinative languages, inflectional languages, affixation, composition method, prefix, suffix

Italian tili — roman til oilasiga mansub bo‘lib, asosan Italiyada, shuningdek, Shveytsariya, San-Marino, Vatikanda ham rasmiy til sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, italyan tili ba’zi boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalgan, masalan, Avstraliya, AQSh va Kanadada. O‘zbek tili esa, turkiy til oilasiga kiradi va Markaziy Osiyoda, asosan O‘zbekistonda rasmiy til sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, o‘zbek tili qo‘shni davlatlarda, masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Turkiya va boshqa hududlarda ham tarqalgan.

O‘zbek va italyan tillari o‘zaro farqlarga ega, ayniqsa tillarning morfologik xususiyatlari bo‘yicha. Buning sababi esa turli til oilalariga mansubligidir: o‘zbek tili qo‘shimchalardan keng foydalanadigan agglutinativ til bo‘lsa, italyan tili esa so‘z o‘zgarishlari o‘zagida sodir bo‘ladigan flektiv tillaridan biridir.

Flektiv tillar – so‘zning shakli o‘zgartirilishi orqali grammatik ma’no ifodalangan tillar bo‘lib, bunda bir so‘zning turli grammatik shakllari bor. Flektiv tillar, qo‘shimcha va affikslar orqali ma’no o‘zgartirishdan tashqari, ichki o‘zgarishlar yoki so‘z ildizini o‘zgartirish orqali yangi grammatik ma’no ifodalashadi. Shuningdek, flektiv tillarda bitta grammatik shakl bir vaqtning o‘zida bir nechta grammatik ma’noni bildirishi mumkin (masalan, shaxs, kelishik, rod). Flektiv tillarga lotin, rus, arab, nemis, fransuz, va ispan tillari misol bo‘la oladi.

Agglutinativ tillar esa aksincha, grammatik tuzilishida so‘zlarni turli ma’nolarni ifodalash uchun qo‘shimchalar yordamida o‘zgartiradigan tillardir. Bu tillarda har bir qo‘shimcha yoki morfema ma’lum bir grammatik yoki leksik ma’noni ifodalaydi va o‘z navbatida boshqa qo‘shimchalar bilan qo‘shilib, murakkab so‘zlar hosil qiladi. Har bir qo‘shimcha o‘z ma’nosini o‘zgarmasdan saqlab qoladi va mustaqil ahamiyatga ega bo‘ladi. Agglutinativ tillar turli tillar oilasida uchraydi va ularga quyidagi tillarni misol qilib keltirish mumkin: o‘zbek, turk, qozoq, qirg‘iz , vengr , yapon va koreys tillari. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joziki, o‘zbek tilshunosligida buyuk olimlarning xizmatlari alohida o‘rin egallaydi. Azim Hojiyev, Abduzuhur Abduazizov, Miraziz Mirtojiyev va Shavkat Rahmatullayev o‘zлari yaratgan ilmiy asarlar va til rivojiga qo‘shgan hissalari bilan milliy tilshunoslikning poydevorini mustahkamlab bergenlar. Azim Hojiyev tilning rasmiy va ilmiy jihatalarini takomillashtirib, yozuv va imlo qoidalarini ishlab chiqqan bo‘lsa, Abduzuhur Abduazizov fonetika, fonologiya va chog‘ishtirma lingvistikaga oid qimmatli ilmiy ishlar qoldirgan. Miraziz Mirtojiyev esa semantika, etimologiya va turk tilshunosligi sohalarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borgan. Shavkat Rahmatullayev esa tilimizning hozirgi adabiy shakllari, uning foydalanish qoidalarini o‘rgangan. Bundan tashqari, uning ilmiy ishlari o‘zbek tili va adabiyoti, shuningdek tilshunosik darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari sohasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu olimlarning xizmatlari o‘zbek tili rivoji, uning

xalqaro miqyosda tan olinishi hamda zamonaviy fan va ta'lif jarayonlarida keng qo'llanilishida muhim o'rinni tutadi.

Ushbu ikki tilni flektiv va agglutinativ xususiyatlarini ot, fe'l, va sifat shakllarida batafsil ko'rib chiqamiz. Otining ko'plik shakli ona tilimizda kitob + lar = kitoblar shaklida o'zgarib, -lar qo'shimcha faqat ko'plik ma'nosini ifodalaydi va boshqa grammatik ma'nolarni anglatmaydi. Italian tilida esa : libro > libri (kitob > kitoblar). Bu yerda libro so'zi libri shakliga o'zgargan. Ko'plik ma'nosini bildiruvchi bu shakl o'zgarishi bilan birga, so'zning rodini va sonini ham ifodalaydi. Sifatning rod va son bo'yicha moslashuvi: chirolyi so'zini olsak, o'zbek tilida chirolyi bola (o'g'il bola uchun ham, qiz bola uchun ham) o'zgarishsiz qo'llanadi, chunki sifat o'zgarmaydi. Italian tilida sifatning rod va son shakli otga qarab moslashadi. Masalan: bello ragazzo (chirolyi o'g'il bola), bella ragazza (chirolyi qiz bola). Fe'lning zamon va shaxs bo'yicha shakllanishini o'qimoq fe'li misolida tahlil qilamiz. O'zbek tilida: o'qi+yapman, o'qi+dim. Bu yerda -yap qo'shimchasi hozirgi zamonni, -man qo'shimchasi esa birinchi shaxshni bildirsa, -dim qo'shimchasi o'tgan zamon, birinchi shaxsni bildiradi. Har bir qo'shimcha o'ziga xos, mustaqil grammatik ma'nosini aniq ifodalaydi. Italian tilida: leggere (o'qimoq) fe'li quyidagicha tuslanadi: leggo (men o'qiymen), ho letto (men o'qidim). "Leggo" shakli bir vaqtning o'zida birinchi shaxs va hozirgi zamonni bildiradi. O'tgan zamon shakli esa yordamchi fe'l (avere) va asosiy fe'lning o'zgarishi orqali ifodalanadi. Bu yerdagi shakllanish bir vaqtning o'zida shaxs-son va zamon ma'nosini ifodalaydi. Otning kelishik shakllari: O'zbek tilida otning kelishik shakllari maxsus qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Har bir qo'shimcha aniq bir grammatik funksiyani bajaradi. Masalan: kitob + da= kitobda (o'rinn-joy) yoki kitob + ga = kitobga (jo'nalish). Italian tilida esa kalishiklar yo'q, ular asosan predloglar yordamida ifodalanadi va otning shakli o'zgarmaydi. Masalan: nel libro (kitobda) yoki al libro (kitobga).

Ushbu taqqoslash jarayonidan ko'rinish turibdiki, o'zbek tilida morfemalar so'zga qat'iy tartibda ketma-ket qo'shimchalar qo'shish orqali ifodalanib, har bir qo'shimcha o'zining alohida ma'nosini saqlaydi. Aksincha, italian tilida esa, grammatik ma'nolar so'z shaklini o'zgartirish orqali birlashtirilib ifodalanib, bir so'z bir vaqtning o'zida bir nechta grammatik ma'nolarni bildirsa, sifatlar rod va son bo'yicha otga moslashadi. Shuningdek, predloglar yordamida grammatik ma'nolar ham qo'shiladi.

Bundan tashqari flektiv hamda agglutinativ tillar orasida so'z yasalishidagi farqlar ham anchagina sezilarli. Umuman olganda, so'z yasalishi – bu lug'at tarkibini kengaytirish, tilning leksik imkoniyatlarini oshirish va yangi tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan muhim jarayondir. So'z yasalish jarayoni barcha tillarda asosan qo'shimcha qo'shish orqali amalga oshiriladi. Affiksatsiya orqali ot yasash usuli o'zbek va italian tillarida muhim mavzulardan biri bo'lib, bu tillarning morfologik tizimlarini solishtirishga imkon beradi. O'zbek tilida affiksatsiya, asosan, prefikslar va suffikslar yordamida amalga oshadi. Ko'pincha yangi otlar yasash uchun so'zga yangi ma'no beruvchi qo'shimchalar qo'shiladi. Ko'p qo'llaniladigan suffikslardan biri -chi kasb-hunar yoki mashg'ulot bilan bog'liq otlar yasashda qo'llanadi. Masalan: haydamoq fe'liga qo'shilib hayda+chi=haydovchi yoki sport+chi= sportichi oti

yasalmoqda. Ushbu suffiksning italyan tilidagi ekvivalentlari ham bor ulardan biri: - ante. U fe'llarni otga aylantirish uchun xizmat qiladi: cantare (qo'shiq aytmoq)+ante= cantante (qo'shiqchi) yoki insegnare (o'qitmoq)+ante= insegnante (o'qituvchi). Shunday qilib, o'zbek tilidagi -chi hamda italyan tilidagi -ante yordamida kasb yoki faoliyat yurutuvchilarning nomlari yasaladi.

Bundan tashqari -lik suffiksi yordamida joy, holat yoki sifat bilan bog'liq otlar yasash mumkin: Toshkent+lik= toshkentlik. Ushbu qo'shimcha shahar nomiga qo'shilib joy yoki hudud bilan bog'liq ma'lumotni qo'llashda ishlatilmoqda. Yaxshi+lik= yaxshilik esa sifatga qo'shilgan xolda mavhum ot yasash uchun xizmat qilmoqda. O'zbek tilidagi -lik qo'shimchasining joy yoki kelib chiqish bilan bog'liq bo'lgan ma'noni ifodalashdagi so'zlar italyan tilidagi -ano yoki -ese ekvivalentlari yordamida hosil qilinadi. Masalan: Roma+ano= Romano(Romalik), America+ano=Amerikalik. -ese: Cina+ese= Cinese(Xitoylik), Francia+ese= Francese(Fransuz). Bu ikki qo'shimchaning farqi shundaki, biri ma'lum bir mintaqadan yoki joydan bo'lgan odamlar yoki narsalarni tasvirlash uchun ishlatilsa, ikkinchisi, asosan, millat yoki etnik guruahlarni ifodalashda ishlatiladi va ko'proq madaniy yoki etnik identifikatsiyani bildiradi.

O'zbek tilida -zor qo'shimchasi ot yasovchi qo'shimcha bo'lib, odatda joy atamalarni ifodalaydi. Bu suffiks, ayniqsa, o'ziga xos joy yoki faoliyatni anglatish uchun ham ishlatiladi va ko'pincha yer, o'simliklar yoki faoliyatga oid joylarni bildiradi. Masalan: uzum+zor=uzumzor, gul+zor=gulzor, daraxt+zor=gulzor. Ko'rinish turibdiki, uzum meva nomiga -zor qo'shimchasini qo'shgan holda ot so'z turkumiga oid yangi, uzum o'sadigan va etishitirladigan joyni ifoda etadigan so'z hosil bo'ldi. Italian tilida hudud nomlarini yasashda -eto suffiksi m'ano jihatdan to'g'ri keladi: frutta(meva)+eto=frutteto(mevazor), olive(zaytun)+eto=oliveto(zaytunzor). Bu otlar xuddi o'zbek tili singari meva yoki o'zimliklar ko'p osadigan va yetishtiriladigan joy nomlarini ta'riflash uchun xizmat qiladi. Italian tilida -zione suffiksi ham alohida o'rin egallaydi. Bu suffiks ko'pincha jarayon yoki holat bilan bog'liq otlar yasash uchun ishlatilad: organizzare (tashkil qilish) fe'lidan organizzazione (tashkilot), educare (o'qitmoq) fe'lidan educazione (ta'lim) yoki comunicare (aloqa qilish) fe'lidan comunicazione (aloqa) otlarini yasashimiz mumkin.

Ikki tilda ham ot yasash jarayonida affiksatsiya usuli muhim ahamiyat kasb etadi, ammo, italyan tilida suffikslardan o'zbek tiliga nisbatan ko'proq foydalilanadi. Ushbu tillarda affiksatsiya qoidalarini bilish yangi so'zlarni hosil qilishni osonlashtiradi va til o'rganish jarayonida lug'at boyligini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, prefiks va suffikslar yordamida so'zlarning ma'nosi o'zgarishi mumkin. O'zbek tilidagi -chi suffiksi kasb yoki faoliyatni bildirsa (quruvchi, ishchi), italyan tilida \_ante suffiksidan tashqari -ista" yoki -tore kabi qo'shimchalar orqali ham kasb nomlarini yasashimiz mumkin: artista (rassom), scrittore (yozuvchi). Bu so'z yasalish jarayonlarini bilish til o'rganuvchiga yangi so'zlarni ma'nosini kontekstdan aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, affikslar yordamida yangi otlar hosil qilish orqali bir so'z ildizidan ko'plab boshqa so'zlarni oson yod olishimiz mumkin: o'zbek tilida "kitob" so'zidan "kitobxon". Xuddi shu so'zni italyancha misollar bilan ko'radigan bo'lsak: "libro"

(kitob) so‘zidan "libreria" (kitob do‘koni) yoki "librone" (katta kitob) degan ma’noda ishlataladi. Bu yerdagi "-one" suffiksi kattalik yoki kattalashgan shaklni bildiradi. Shu kabi so‘zlarni hosil qilish o‘quvchiga o‘sha ildizga asoslangan boshqa so‘zlarni tanib olishiga, shuningdek, yangi so‘zlarni yodlash va ularning asosiy ma’nosini tezroq o‘zlashtirish orqali so‘z boyligini kengaytirishiga va tushunishiga anchagina ko‘mak beradi.

Affiksatsiya usulidan tashqari, ikki tilda ham kompozitsiya usuli mavjud. Bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zni birlashtirib ot hosil qilish jarayonidir. Ushbu usulda turli qoliplar mavjud va ular asosida yangi ma’noli otlar yasash mumkin. Bunday qoliplar italyan tilida bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham mavjud. Masalan: ot+ot, kompozitsiyaning bu usulida ikki ot birlashib, birinchi ot ikkinchi otning turini, funktsiyasini yoki xususiyatlarini aniqlaydi. Ikki tilda ham bor va keng tarqalgan so‘zlardan biri avtomaktab so‘zi xuddi shu usulda yasalgan: avto+maktab=avtomaktab, italyan tilida esa auto+scuola(maktab)= autoscuola ni hosil qilmoqda. Avtomobil hamda maktab so‘zlarining qo‘shilishi natijasida avtomobil haydashni o‘rgatuvchi maktab nomi yasaldi. Sifat+ ot qolipidagi qo‘shma otlar ham har ikki tilda mavjud, tarjima jihatdan to‘liq mos kelmasada, ammo, ikkisi ham o‘z tillarida ushbu sifat+ot tarzida yasaladi: galant(muloyim)+uomo(erkak)= galantuomo(oliyjanob erkak). Bu so‘z italyan tilida ko‘p qo‘llansada o‘zbek tilida aniq ekvivalentga ega emas. Galantuomo so‘zi muloyim va oliyjanob insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ona tilimizdagi oqsoqol so‘zi ham aynan shu qolip asosida yasalgan: oq+soqol= oqsoqol. Bu so‘z jamiyatdagi hurmatga sazovor, o‘z tajribasi va aqli bilan boshqalarga yo‘l yo‘riq korsatadigan insonlarga nisbatan ishlataladi. Bundan tashqari, ot+fe'l tipidagi qo‘shma otlar ham mavjud bo‘lib, dunyoqarash yoki kungaboqar so‘zleri ham aynan ushbu qolipga mos keladi: dunyo+qaramoq= dunyoqarash, kunga+boqmoq= kungaboqar. Ot va fe'lning qo‘shilishi natijasida birinchi so‘zimiz mavhum otga aylangan bo‘lsa, ikkinchisi esa aksincha o‘simplik nomiga aylandi. Italyan tilida aynan shu qolipning o‘zi yoq, ammo, so‘z turkumlari o‘rnini almashtirgan xolda fe'l+ot tipidagi so‘zlar yasaladi: spazzare(tozalamoq)+neve(qor)= spazzaneve ya’ni qor tozalaydigani moslama nomi; yoki lavare(yuvmoq)+ stoviglie(idish)= lavostaviglie – idish yuvadigan mashina so‘zi yasaldi.

O‘zbek va italyan tillaridagi qoshma so‘zlar orasida ba’zi bir o‘xhashliklar bo‘lsa ham, farqlar ham anchagina bor. Ular morfologik tuzilish, semantik ma’nolar va sintaktik strukturalarda yuzaga keladi. O‘zbek tilida qoshma so‘zlar aniq va oddiy shaklda tuzilsa, italyan tilida ularning morfologiysi va fonetikasi murakkabroq bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va italyan tillarida otlarni yasalish usullari turlicha bo‘lsa-da, ularni birgalikda chog‘ishtirma usulidan foydalangan xolda o‘rganish samarali tushunishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi agglutinativ tizim va italyan tilidagi flektiv tizim, so‘z yasashning alohida yondoshuvlarini taklif etadi. Bu farqlarni tushunish, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq anglashga va tilni nazariy o‘rganishgagina xizmat qilmay, balki, shu sohada sezilarli natjalarni

qo‘lga kiritishga ham yordam beradi. Shuningdek, bunday farqlarni tushunish orqali ikki til o‘rganuvchilari grammatikani osonroq va to‘liqroq o‘zlashtirishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. ЎЗБЕК ТИЛИ МОРФОЛОГИЯСИ, МОРФЕМИКАСИ ВА СЎЗ ЯСАЛИШИННИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ: «ФАН» нашриёти, 2010
2. L’italiano contemporaneo: Il Mulino, 2011
3. Il lato sinistro della morfologia: Gabio Montermini Franciangeli, 2008
4. Grammatica italiana dell’uso moderno: Raffaelo Fornaciari, 2005
5. Oyimjon, T. J. (2022). O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISH USULLARI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy jurnali(152-154)
6. Морфология современного русского языка: А.К.Карпов, 2019